

VATANPARVARLIK FENOMENINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

*Masharipov Xushnud Mirzaboyevich, Urganch davlat
universiteti tadqiqotchisi*

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF PATRIOTISM

*Masharipov Khushnud Mirzaboevich, research fellow at
Urgench State University*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА ПАТРИОТИЗМА

*Masharipov Xushnud Mirzaboevich, независимый
исследователь Ургенчского государственного
университета*



<https://orcid.org/0009-0003-7326-8913>

e-mail:

khushnudmashaip@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada vatanparvarlik fenomenining mohiyati ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga e'tibor qaratildi. Yosh xodimlarning vatanparvarligi, ma'naviyati, axloqi va saviyasini ko'tarish masalasi, unga ta'sir etuvchi mexanizmlar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, axloq, manaviyat, tarbiya, tushuncha, insonparvarlik, adolatparvarlik, qadriyat, mentalitet.

Abstract: The article analyzes the essence of the phenomenon of patriotism. The article also pays attention to the issues of military patriotism and moral education. The issues of increasing patriotism, spirituality, morality and the level of young employees, as well as the mechanisms that influence this, are scientifically analyzed.

Keywords: patriotism, morality, spirituality, education, understanding, humanity, justice, value, mentality.

Аннотация: В статье анализируется сущность феномена патриотизма. В статье также уделено внимание вопросам военного патриотизма и нравственного воспитания. Научно проанализированы вопросы повышения патриотизма, духовности, нравственности и уровня молодых сотрудников, а также механизмы, влияющие на это.

Ключевые слова: патриотизм, мораль, духовность, воспитание, понимание, гуманность, справедливость, ценность, менталитет.

KIRISH. Ma'lumki, Vatan himoyasida toblangan mard o'g'lonlar o'zining mardlik va jasurlik fazilatlarini, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi bilan obro'-e'tibor qozongan harbiy xizmatchilar yoshlarga har tomonlama ibrat va o'rnam namunasi hisoblanadi. Dunyoda g'oyaviy va siyosiy kurashlar keskinlashayotgan bir sharoitda yoshlarda, xususan, ichki ishlar organlari xodimlarida vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik hissini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Jumladan, rivojlangan

mamlakatlarda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha davlat dasturi, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyasi qabul qilingan, yoshlarning vatanparvarlik borasidagi tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi va davlat tomonidan moliyaviy ko'mak beriluvchi ko'plab jamoatchilik asosidagi faxriylardan tarkib topgan uyushmalar tashkil etilgan.

Vatanparvarlik – bu kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘zbek xalqi o‘zining boy va qadimiy tarixini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo‘ldi. “O‘zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og‘ir sinovlar bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz”[1.5]. Mana shu sinovlarga boy o‘tmish, mana shu so‘nmas madaniyat o‘zbek xalqini buyuk va yorqin kelajak sari qadam tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o‘tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo‘lida birlashtiradi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “O‘zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to‘siq va sinovlarni o‘z kuchi va irodasi bilan yengib o‘tishga qodir, deb baralla aytishga to‘la asos beradi” [1.7].

Tarixiy manbalar qadimda vatanimiz hududida vujudga kelgan davlatlarda harbiy jangchilardan tashqari “soqchi”, “qorovul”, “chokar”, “shixna”, “yasovul”, “ko‘kaldosh”, “muhtasib”, “posbonboshi”, “sarboz”, “mirshabboshi” va “mirshab”lar hukmdor qarorgohi, qal’alar va boshqa inshootlarni qo‘riqlash, qishloq va shaharlardagi osoyishtalik va jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish, aybdorlarni aniqlash, topish va jazolash kabi vazifalarini bajarganligi, shu kabi tuzilmalar negizida bugungi ichki ishlar organlari shakllanganligi, bu esa o‘z navbatida, ichki ishlar organlari o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog‘langan tarixiy ildizlariga ega ekanligidan dalolat beradi[9].

MUHOKAMA. Jahonda mamlakat mudofaasining asosiy ko‘rsatkichi vatanparvarlik hissi yuqori darajada rivojlangan, fidoyi, bilim va tajribasini Vatanga baxshida etuvchi avlodni

shakllantirish hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, mazkur fazilatlarini shakllantirish mexanizmlarini, rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bois, bugun dunyoda milliy vatanparvarlikning genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasi; millatlararo munosabatlarda vatanparvarlikning o‘rni; vatanparvarlik va geosiyosat muammosi; vatanparvarlik fenomenining axloqiy mazmuni, o‘zgarish dinamikasi kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda vatanparvarlik tarbiyasi va targ‘ibotiga munosabat tubdan o‘zgardi. Vatanparvarlikni targ‘ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. Yurtimizda “Mustaqillik”, “Amir Temur”, “Jaloliddin Manguberdi” ordenlari, “Jasorat”, “Sodiq xizmatlari uchun”, “Mardlik” medallari ta’sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini yanada teranroq anglashda mavjud ilmiy lug‘atlarga murojaat qilamiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “Vatanparvar – o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi. Vatanparvarlik – vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat” tarzida izohlanadi. Bugungi kunga kelib “vatanparvar” so‘zi fuqarolarning o‘z Vatani sevishini anglatuvchi ramziy so‘zga aylanib ulgurdi[5.444-445].

Qomusiy lug‘atda “vatanparvarlik” so‘zi “vatanga muhabbat” sifatida talqin qilinadi. Lug‘atda “vatanparvarlik” so‘zi “o‘z xalqi, Vatanga bo‘lgan muhabbat, sodiqlik”ni anglatishi e‘tirof etiladi. Pedagogik qomusiy lug‘atda vatanparvarlik so‘zi mohiyati “o‘z vatani, qarddon tuprog‘i, madaniy muhitiga bo‘lgan muhabbati” tarzida yanada oydinlashtiriladi[6.348].

Falsafiy lug‘atda vatanparvarlik so‘ziga nisbatan quyidagicha izoh berilgan: “vatanparvarlik – ma’naviy va siyosiy tamoyil, vatanga bo‘lgan muhabbat mazmuniga ega bo‘lgan chuqur ijtimoiy hissiyot, uning o‘tmishi va buguni uchun faxr-iftixor,

o'z manfaatlarini uning manfaatlariga bo'ysindirishga tayyorlik"[4.7].

Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan histuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi[10].

Vatanparvarlik deganda yana quyidagilarni anglash joiz:

- o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;

- qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;

- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;

- ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;

- shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;

- Turon zaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlar nomini yod etish;

- bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

- Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyligini ko'z qorachig'iday asrash, boyligiga boylig qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir;

- ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

Vatanparvarlik – Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan

tushuncha bo'lib, bunga ichki ishlar organlari faoliyatini misol qilishimiz mumkin.

Istiqlol sharofati bilan yurtimizda boshqa sohalar kabi ichki ishlar organlariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu soha xalqimizning himoyachisi va ko'makchisiga, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida bosib o'tilgan yo'l va orttirilgan tajriba, erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni xolisona baholash, ayni vaqtda bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlarni tahlil qilish asnosida ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalar qo'yilmoqda.

O'tgan qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, 6 qonun, Prezidentimizning 7 ta farmoni va 40 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 89 ta qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi[11].

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli farmoni[2]da keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to'planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar tahlil qilinishi barobarida, ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor ichki ishlar organlari rahbarlarining parlament, deputatlar va keng jamoatchilik oldida o'z vazifalarining bajarilishi yuzasidan hisobot berish tartibi belgilab berildi. Farmon bilan "Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi" ham tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi qarori bilan "Ichki ishlar vazirligi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi[7].

NATIJALAR. Yuqoridagi farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida qisqa davr ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bunda, eng avvalo, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga faqatgina ichki ishlar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning

vazifasi deb emas, balki barcha davlat organlari va aholi qatlamlarining vazifasi, ya'ni umumdavlat va umumxalq ishi sifatida qarash, bu borada barcha davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilikning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik muhitini yaratish yo'li bilan huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi va oldi olinishini ta'minlashga e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida "Yangi O'zbekiston"ni barpo etishdek buyuk maqsad sari keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'tkazilayotgan barcha islohotlarning zamirida yurtimizni har tomonlama rivojlantirib, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta'minlash, huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni rozi qilish yotadi.

Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan eng quyi bo'g'in hisoblangan mahallada xavfsiz muhit yaratish bo'yicha ishlash uslubi tubdan o'zgardi. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati qayta ko'rib chiqildi. Ilgari qariyb 20 foiz mahallada profilaktika inspektori yetishmasdi, bir nafar profilaktika inspektori 2-3 mahallaga xizmat qilar va ko'p hollarda ularga ortiqcha vazifalar yuklatilar edi. Endilikda har bir mahallada profilaktika inspektori lavozimi joriy etildi. Fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini bajarish ham profilaktika inspektoriga yuklatildi. Profilaktika inspektori mahalla raisi bilan kamida 5 yil mobaynida birga ishlashi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq 2018-yilning avgust oyida, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligining 27 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida "Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi" o'z faoliyatini boshladi [8.4].

Ma'lumot uchun, ichki ishlar organlari tarixi muzeyi dastlab 1974-yilda tashkil etilgan bo'lib, vazirlik hududida rekonstruksiya qilingan binoga ko'chirilishi uning faoliyatiga yangi yo'nalish berdi. Muzey to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, "O'zbekiston hududida xavfsizlik va ichki tartibni saqlovchi

tuzilmalarning shakllanishi", "Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlar", Vazirlik sohaviy xizmatlari faoliyati va "Ichki ishlar organlari tizimida kadrlar tayyorlash, xodimlarning kasbiy va jangovar tayyorgarligi hamda ularning ijtimoiy muhofazasi" kabi yo'nalishlarni qamrab olgan [9.6].

Mustaqillik yillarida jami 1744 nafar ichki ishlar organlari xodimlari "Mard o'g'lon", "Jasorat", "Sodiq xizmatlari uchun" medallari, "Mardlik", I va II darajali "Shon-sharaf" ordenlari hamda boshqa ko'plab Davlat mukofotlari bilan taqdirlangani bejiz emas. Fidoyilik va mardlik namunalarini ko'rsatgani uchun 2019-yil davomida 4 ming 359 nafar, joriy yilning olti oyi mobaynida esa 4 ming 210 nafar ichki ishlar organlari xodimlari Ichki ishlar vazirligining idoraviy mukofotlari bilan rag'batlantirildi [13].

XULOSA. Xulosa qiladigan bo'lsak, biz tarixan qisqa davrda Respublikamizda ichki xavfsizlikni ta'minlash aholining tinchligi va osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmat, huquqi, erkinligi, qonuniy manfaatlar va barqaror taraqqiyotini har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilish borasida ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Jinoyatchilikning oldini olish maqsadida yangi dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyat mazmuni butunlay o'zgarimoqda. Biz kelajakda el-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqparvar, vatanni sevuvchi vatanparvar xodimlar bilangina ichki ishlar tizimini yaratish kerak, zero ijtimoiy-falsafiy vatanparvarlik jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariga xos bo'lgan eng muhim, doimiy qadriyatlardan biri bo'lib, u shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining eng yuqori darajasini tavsiflaydi va o'zini Vatan farovonligi yo'lida teran anglashida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5005-сонли Фармони. Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний

манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг маъсулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида. Toshkent, 10.04.2017 й.

3. Boymirzayev X.K. O‘zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Namangan davlat universiteti nashriyoti. Namangan-2022. 65- bet.

4. Falsafiy lug‘at. – T.: “Fan” nashriyoti, 1998. – B. 543. Ўша манба – Б. 7.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – B. 444-445.

6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zdamnashr davlat ilmiy nashriyoti. – B. 348.

7. O‘zbekiston Respublikasi Qarori. PQ-2883-son. Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada

takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida. 12.04.2017-yil.

8. Yangi O‘zbekiston. 2021-yil 27-aprel. 83-son. 4-bet.

9. Yangi O‘zbekiston. 2021-yil 8-may. 93-son.6-bet.

10. <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

11. <https://oyina.uz/kiril/teahause/1448>

12. <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>.

13. [https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga](https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi) aylantiriladi.

14. Kurbanbayeva, M. Fuqarolik jamiyati g‘oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 2024. 247-250.

